**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.01/2025.27.12.Ped.04.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

KAZAKOV SHAVKAT NORQOBILOVICH

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KASBIY ETIKA VA PEDAGOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2026

UO‘K: 37.013:174:378

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa fanlari doktori (PhD)) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертасии доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences

Kazakov Shavkat Norqobilovich
Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy etika va pedagogik madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslari 3

Kazakov Shavkat Norqobilovich
Теоретические основы формирования профессиональной этики и педагогической культуры у будущих учителей 25

Kazakov Shavkat Norkobilovich
Theoretical foundations of developing professional ethics and pedagogical culture in future teachers 51

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works..... 57

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.01/2025.27.12.Ped.04.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

KAZAKOV SHAVKAT NORQOBILOVICH

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KASBIY ETIKA VA PEDAGOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Chirchiq – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Ped9830 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.cspu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Choriyev Ilxom Ruzibayovich** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna** pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
	Xakimova Muxabbat Fayziyevna pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Qo‘qon davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.01/2025.27.12.Ped.04.02-raqamli ilmiy kengashning 2026-yil “25” 11 soat 14.00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel.: (+998) 70-712-27-55; faks: (+998) 70-712-45-41; e-mail: cspu-kengash@umail.uz.).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (574 raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel.: (+998) 70-712-27-55; faks: (+998) 70-712-45-41.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “14” 11 kuni tarqatildi.
(2026-yil “14” 11 dagi 65 raqamli reyestr bayonnomasi).

U.N.Xodjamqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash rajsi p.f.d., professor

F.T.Rajabov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, p.f.d., dotsent

R.A.Eshchanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda ta’lim tizimini zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirishda kognitiv texnologiyalarga asoslangan yondashuvlar tobora keng qo‘llanilmoqda. Ta’limning mazmuni va usullarini qayta ko‘rib chiqish, o‘qituvchilar va o‘quvchilarning axloqiy, intellektual va ijtimoiy yetukligini shakllantirishda axloqiy kompetensiyalar, pedagogik madaniyat va kasbiy qadriyatlar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, AQSH, Finlyandiya, Singapur, Yaponiya va Buyuk Britaniya ta’lim tizimida neyropsixologik usullar, emotsional intellektni rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar, rolli o‘yinlar, interaktiv simulyatsiyalar va axloqiy tanlovlar asosida shaxsning faol subyekt sifatida shakllanishiga qaratilgan innovatsion yondashuvlar amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bu holat ta’limda faqat bilim berish emas, balki fuqarolik pozitsiyasi, axloqiy qarashlar va jamoaviy munosabatlarni shakllantirishni ham markazga chiqarayotganini ko‘rsatadi. Shu bois, bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy etika va pedagogik madaniyatni shakllantirish, ularni global ta’lim jarayoniga mos tarzda tayyorlash masalasi jahon miqyosida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda ta’lim sifatini oshirish, o‘qituvchi shaxsiyatida kasbiy axloq, insonparvar munosabat va pedagogik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, AQSHda Linda Darling-Hammond rahbarligidagi tadqiqotlarda o‘qituvchilarda ijtimoiy-axloqiy tafakkurni rivojlantirishning tarbiyaviy mexanizmlari o‘rganilmoqda. Finlyandiyada Pasi Sahlberg tomonidan o‘quv jarayonida kasbiy yetuklik va etik yondashuvlarni joriy etish bo‘yicha ta’lim islohotlari asoslab berilgan. Germaniyada esa neyropsixologiya va axloqiy tanlov masalalari o‘zaro bog‘langan holda empirik tahlil etilmoqda. Buyuk Britaniyada etik yetuklik va ta’limdagi liderlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishga qaratilgan tahliliy ishlar kengaymoqda. Ushbu ilg‘or tadqiqotlar jahon ta’limida faqat bilim emas, balki axloqiy yetuklikni shakllantirishni ham ustuvor maqsad sifatida belgilanishini ko‘rsatmoqda. Shu asosda pedagoglarning kasbiy-axloqiy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan ilmiy-metodik yechimlarni ishlab chiqishga zarurat ortmoqda.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ta’lim islohotlari rivojlangan mamlakatlar tajribasini ijodiy o‘zlashtirish va ta’lim shakli va mazmuniga qo‘yilayotgan talablarni ta’lim sifatini baholovchi xalqaro tashkilotlar mezonlariga moslashtirish bilan izohlanadi. Yangi O‘zbekistonning uzluksiz ta’lim tizimidagi islohotlar ta’lim-tarbiya jarayonlarini innovatsion tendensiyalarga mos ravishda takomillashtirish va modernizatsiyalashgan ta’limni tashkil etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Bu sohada, ayniqsa, oliy mahorat sporti borasida keyingi yillarda muayyan yutuqlarimiz bor. Biz ular bilan haqli ravishda faxrlanamiz”[1]. Ushbu e’tirof soha vakillari oldiga ulkan mas’uliyat yuklaydi. Zero,

[1] Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. / O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi. —

jismoniy tarbiya va sport sohasi uchun o‘qituvchi-murabbiylar tayyorlashning mazmuni va tuzilishiga nisbatan yangicha talablar bilan yondashish, samarali ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishga qodir, kasbiy kompetensiyaga ega, sohaning o‘zgarib turadigan shart-sharoitlariga moslasha oladigan jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlash bilan bog‘liq vazifalar sohaning strategik maqsadlarida o‘z ifodasini topmog‘i lozim.

O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi PF-5368-son “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari 2022-yil 3-noyabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-414-sonli qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda kompetentlik, kasbiy kompetentlik, jumladan, oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy va amaliy masalalari bo‘yicha tadqiqotlar N.N.Azizxodjayeva, N.T.To‘xtaboyev, U.I.Inoyatov, Y.U.Ismadiyarov, R.G.Isyanov, Sh.E.Kurbanov, R.Sh.Axliddinov, U.Sh.Begimqulov, R.G.Mullaxmetov, E.A.Seytxalilov, N.I.Taylaqov, Z.Y.Yuldashev, R.X.Jo‘rayev, M.B.Urazova va Sh.N.Muslimovlar; bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonlarida kasbiy etika va kompetentlikni takomillashtirish muammolari bo‘yicha ilmiy izlanishlar A.R.Isyanova, Sh.Q.Mardonov, M.T.Mirsoliyeva, J.G‘.Yo‘ldoshev, R.X.Shaymardanov, M.B.Matnazarova; bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslarini yaratish muammolari M.Karimov, R.Rasulov, K.Jabborov, S.Matchonov, Q.Yo‘ldoshev, U.Mahkamov kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan G.Alekseev, G.A.Atanov, A.Kurvina, K.A.Marinchenko, G.Atanov, G.A.Vashenko, M.T.Gromkova, M.D.Ilyazova, I.F.Isayev, V.G.Krisko, N.B.Melnik, A.A.Novikov,

---

https://www.norma.uz/muhim_voqealar/tanqidiy_tahlil_qat’iy_tartib-intizom_va_shaxsiy_javobgarlik_har_bir_rahbar_faoliyatining_kundalik_ qoidasi_bo‘lishi_kerak. – T.: O‘ZBEKISTON, 2017. – B. 70.

M.D.Ilyazova, Y.P.Pavarenkov, N.A.Rakova, M.N.Skatkin, I.B.Chmil, N.V.Uysimbayeva, A.Xutorskoy, S.A.Filippova, M.G.Sidorenko, Z.A.Fedoseevalarning tadqiqotlarida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish, ularda pedagogik madaniyatni rivojlantirish, talabalarning umumiy tayyorgarligi, tayanch kompetensiyalari hamda mazkur jarayonlarda kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish xususiyatlari kabi masalalar yoritilgan. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning umummetodologik asoslari va nazariy yondashuvlari A.A.Viru, T.A.Yurimiyan, T.A.Smirnova, Y.Penkova, M.Bobnev, V.Brojik, Y.Lukasheva, A.Rafikov, Y.Golovchenko, V.Kufayev, P.Blonskiy, L.Vigotskiy, S.Danilov, A.Zimin, L.Zyubin kabilarning tadqiqotlarida o‘rganilgan.

Xorijiy tadqiqotlarda kasbiy etika, kompetentlik va kompetensiyaga oid masalalar, pedagogik madaniyatni oshirishning nazariy jihatlari, ta’limda kompetensiyaviy yondashuvni qaror toptirish muammolari M.Albert, R.L.Daft, M.Meskon, F.Headouri, M.Uorner, V.M.Zatsiorskiy, O.F.Xijinskaya, A.I.Kravchenko, Meek Lynn kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida tadqiq etilgan.

Bo‘lajak o‘qituvchilarining kasbiy etika va pedagogik madaniyatini rivojlantirish muammosini monografik planda tadqiq etish zarurati mazkur tadqiqot mavzusini belgilab berdi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Chirchiq davlat pedagogika universitetining “Pedagogik ta’lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari va uning amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari” (2023-2026 yy.) mavzusidagi strategik ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy etika va pedagogik madaniyatni shakllantirish usullarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash, ularning samaradorligini tahlil qilish hamda ta’lim jarayoniga joriy etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oliy pedagogik ta’lim mazmunida kasbiy etika va pedagogik madaniyatni tarbiyalashning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish;

kasbiy etika va pedagogik madaniyatni shakllantirishning universal modelini ishlab chiqish;

axloqiy tarbiya va pedagogik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuv va texnologiyalarni tadqiq etish;

axloqiy yetuklik va pedagogik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik kompleksni ishlab chiqish va ta’lim jarayoniga tatbiq qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy etika va pedagogik madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslarini takomillashtirish jarayoni belgilanib, pedagogik tajriba-sinov ishlariga Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Navoiy davlat pedagogika instituti va Nukus davlat pedagogika institutlarining 414 nafar respondent-talabalari jalb qilingan.

Tadqiqotning predmetini bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy etika va pedagogik madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslarini takomillashtirishning ta’limiy va pedagogik mazmuni, shakli, texnologiyasi, amaliy mexanizmlari, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy (statistik tahlil, qiyosiy tahlil, kompleks yondashuv, tizimli funksional yondashuv), diagnostik (suhbat, so‘rovnoma, kuzatish, tasniflash, intervyu), matematik va pedagogik eksperiment (ma’lumotlarni matematik-statistik tahlil qilish, natijalarni grafik tasvirlash, modellashtirish, eksperiment va boshqalar) kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kasbiy etika va pedagogik madaniyatni tarbiyalashning ilmiy-nazariy asoslari shaxsga yo‘naltirilgan, aksiologik, neyropedagogik va subektli yondashuvlar, shuningdek, fanlararo integratsiya va kognitiv ta’lim texnologiyalarini bo‘lajak o‘qituvchilarda axloqiy intuisiya, kasbiy mas’uliyat, muloqot madaniyati va etik ongni rivojlantirishga maqsadli yo‘naltirish asosida takomillashtirilgan;

kasbiy etika va pedagogik madaniyatni shakllantirishning universal modeli fanlararo integratsiya, aksiologik va kognitiv-motivatsion mexanizmlarni axloqiy kompetensiya, shaxsiy pozisiya va pedagogik madaniyat indikatorlariga modulli tuzilma asosida funksional munosabatda izchil tizimlashtirish orqali ishlab chiqilgan;

axloqiy tarbiya va pedagogik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuv va texnologiyalar kasbiy-ma’rifiy konsepsiyalar, aksiologik mezonlar va kognitiv-kommunikativ faollikni ta’minlovchi integrativ mexanizmlarni fanlararo o‘zaro bog‘liqlik, modulli struktura va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida axloqiy kompetensiyalar tizimiga fazoviy-mazmunli integratsiyalash orqali takomillashtirilgan;

axloqiy yetuklik va pedagogik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik kompleks fanlararo integratsiya, aksiologik yo‘naltiruv, kognitiv faollashtirishga yo‘naltirilgan innovatsion-tarbiyaviy metodlarni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini takomillashtirish asosida ishlab chiqilgan va ta’lim jarayoniga innovatsion mashg‘ulotlar, interaktiv ssenariylar hamda refleksiv tahlil orqali integratsiya qilingan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy pedagogik ta’limda kasbiy etika va pedagogik madaniyatni shakllantirish jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etishga oid mezon va indikatorlar tizimi shakllantirilgan;

kasbiy-ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirishga qaratilgan tarbiyaviy faoliyatning aksiologik va kognitiv-faol modellariga asoslangan aniq metodik mexanizmlar ishlab chiqilgan;

axloqiy kompetensiyalar va shaxsiy pozitsiyani shakllantirishga qaratilgan faol mashg‘ulotlar, keys-ssenariylar, kvestlar, debatlar va muloqotga asoslangan treninglar kompleksi tuzilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy etika va pedagogik madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan mualliflik metodikalari majmui ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan texnologiyalarning nazariy-metodologik asoslari, kasbiy etika va pedagogik madaniyatning rivojlanishini ta’minlashdagi kognitiv va integrativ yondashuvlarning ilmiy jihatdan asoslanganligi, ularning milliy va xalqaro ta’lim amaliyotida qo‘llanilishi, bo‘lajak o‘qituvchilarning nutqiy kompetensiyasi va mantiqiy-tahliliy tafakkurini shakllantirishda qo‘llanilgan metodlarning samaradorligi, multimodal ta’lim usullarining kognitiv tadqiqotlar bilan tasdiqlanganligi, pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarining matematik-statistik tahlil orqali baholanganligi, tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farqlar Student-Fisher kriteriylari, dispersiya tahlili va korrelyatsiya koeffitsiyentlari yordamida aniqlanganligi, tadqiqotda qo‘llanilgan metodlarning ta’lim jarayoniga mos kelishi, kognitiv va integrativ yondashuvlarni kasbiy etika va pedagogik madaniyatni rivojlantirish jarayoniga integratsiya qilish bo‘yicha amaliy takliflar joriy etilganligi va ularning pedagogik hamda akademik muassasalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kasbiy etika va pedagogik madaniyatni shakllantirish jarayoniga fanlararo integratsiya, aksiologik yondashuv va kognitiv-motivatsion mexanizmlar asosida shakllantirilgan universal model, ilmiy asoslangan indikatorlar tizimi, metodik kompleks hamda tarbiyaviy intervensiyalar orqali axloqiy kompetensiya va shaxsiy pozitsiyani rivojlantirishda neyropedagogik, subyektli va aksiologik yondashuvlarni samarali uyg‘unlashtirish, axloqiy intuitsiya va muloqot madaniyatini shakllantirishda neyrofunksional va kognitiv faollashtiruvchi vositalarni tatbiq qilish, pedagogik madaniyat mezonlarini aniqlash va ularni individual, kognitiv va tarbiyaviy parametrlar asosida tizimlashtirish, shuningdek, pedagogik modellashtirish orqali kasbiy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishga oid nazariy xulosalarning ilmiy jihatdan asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kasbiy etika va pedagogik madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan fanlararo integratsiya asosida ishlab chiqilgan innovatsion model, axloqiy yetuklik va pedagogik madaniyatni baholash mezonlari va indikatorlari, quyi, o‘rta va yuqori darajalardagi baholash tizimi, interaktiv mashg‘ulotlar, faoliyat ssenariylari, keys va debat, rolli o‘yin va kvest kabi innovatsion metodikalarning ta’lim jarayonida samarali qo‘llanilishi, shaxsiy pozitsiya, empatiya, axloqiy intuitsiya va muloqot madaniyatini shakllantirish imkoniyatini berishi, axloqiy-etik mazmundagi muammolarni mustaqil hal qilish, shaxsiy tanlov madaniyatini rivojlantirish, pedagogik ta’lim jarayonida kasbiy-ma’rifiy fazilatlarni tarbiyalashda aksiologik va kognitiv yondashuvlarni uyg‘unlashtirgan holda amaliyotga joriy etish imkoniyati bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy etika va pedagogik madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslarini takomillashtirishga bag‘ishlangan tadqiqot natijalari asosida:

Shaxsga yo‘naltirilgan, aksiologik, neyropedagogik va subektli yondashuvlar, shuningdek, fanlararo integratsiya va kognitiv ta’lim texnologiyalarini bo‘lajak o‘qituvchilarda axloqiy intuisiya, kasbiy mas’uliyat, muloqot madaniyati va etik

ongni rivojlantirishga maqsadli yo‘naltirish asosida takomillashtirilgan kasbiy etika va pedagogik madaniyatni tarbiyalashning ilmiy-nazariy asoslariga oid taklif va tavsiyalardan Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogika ilmiy-tadqiqot instituti Milliy ilmiy markazi Qoraqalpog‘iston filialida bajarilgan. AL-XT-0-2997 raqamli “Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg‘unligi muhitida ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning dolzarb masalalari” nomli amaliy loyihasini bajarishda foydalanilgan (Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogika ilmiy-tadqiqot instituti Milliy ilmiy markazi Qoraqalpog‘iston filialida 2025-yil 17-dekabrdagi 502-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, oliy pedagogik ta’limda kasbiy etika va pedagogik madaniyatni shakllantirish jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etishga oid mezon va indikatorlar tizimi shakllantirilgan;

Fanlararo integratsiya, aksiologik va kognitiv-motivatsion mexanizmlarni axloqiy kompetensiya, shaxsiy pozisiya va pedagogik madaniyat indikatorlariga modulli tuzilma asosida funksional munosabatda izchil tizimlashtirish orqali ishlab chiqilgan kasbiy etika va pedagogik madaniyatni shakllantirishning universal modeli, kasbiy-ma’rifiy konsepsiyalar, aksiologik mezonlar va kognitiv-kommunikativ faollikni ta’minlovchi integrativ mexanizmlarni fanlararo o‘zaro bog‘liqlik, modulli struktura va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida axloqiy kompetensiyalar tizimiga fazoviy-mazmunli integratsiyalash orqali takomillashtirilgan axloqiy tarbiya va pedagogik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuv va texnologiyalar bo‘yicha tavsiyalar “Harakatli o‘yinlar va uni o‘qitish metodikasi” darslik mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 14-apreldagi 136-son buyrug‘i bilan taqdim etilgan 258954-sonli nashr guvohnomasi). Natijada, kasbiy-ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirishga qaratilgan tarbiyaviy faoliyatning aksiologik va kognitiv-faol modellariga asoslangan aniq metodik mexanizmlar ishlab chiqilgan;

Fanlararo integratsiya, aksiologik yo‘naltiruv, kognitiv faollashtirishga yo‘naltirilgan innovatsion-tarbiyaviy metodlarni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini takomillashtirish asosida ishlab chiqilgan va ta’lim jarayoniga innovatsion mashg‘ulotlar, interaktiv ssenariylar hamda refleksiv tahlil orqali integratsiya qilingan axloqiy etuklik va pedagogik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik kompleks borasidagi taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi DUK “O‘zbekiston” teleradiokanalining “Yonma-yon” ko‘rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali” DUK “Yonma-yon” ko‘rsatuvining 2025-yil 9-iyuldagi 05-09-1096-son ma’lumotnomasi). Natijada, bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy etika va pedagogik madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan mualliflik metodikalarni ommalashtirishga xizmat qilgan;

Axloqiy etuklik va pedagogik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik kompleks fanlararo integratsiya, aksiologik yo‘naltiruv, kognitiv faollashtirishga yo‘naltirilgan innovatsion-tarbiyaviy metodlarni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini takomillashtirishga oid tavsiyalar O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan PZ-20170913120-sonli “Oliy ta’lim tizimida raqobatbardosh

kadrlar tayyorlashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari” mavzusidagi amaliy loyihada belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 8-iyuldagi 04/11-8816 son ma’lumotnomasi). Natijada, bo‘lajak o‘qituvchilarda fanlararo mas’uliyat, muloqot madaniyati va etik ongni rivojlantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 18 ta ilmiy ish, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 166 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish”** qismida tadqiqot ishining dolzarbligi asoslab berilgan, maqsadi, obyekti, predmeti va vazifalari belgilangan, tadqiqot ishini tashkil etishning nazariy va metodologik asoslari ta’riflangan, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Kasbiy axloq va pedagogik madaniyatni shakllantirishning metodologik asoslari”** deb nomlanadi va unda globallashuv sharoitida kasbiy axloq va pedagogik madaniyatning umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘liq mohiyati ochib berilgan, kasbiy axloq va pedagogik madaniyatni shakllantirishga doir ilmiy-metodologik yondashuvlar tahlil qilingan hamda kasbiy axloq va pedagogik madaniyat masalasini tadqiq etishda ilmiy tadqiqot metodlarining o‘rni va vazifalari aniqlashtirilgan.

Globallashuv insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichi sifatida davlatlar, madaniyatlar va ta’lim tizimlari o‘rtasidagi chegaralarni yumshatib, bilimlar, qadriyatlar va g‘oyalarning erkin harakatlanishiga keng imkoniyat yaratmoqda. Bunday sharoitda milliy ta’lim tizimlari o‘z oldiga faqat bilim berish emas, balki universal insonparvarlik qadriyatlarini tarbiyalash vazifasini ham qo‘ymoqda. Bu vazifaning amaliy ijrochisi aynan o‘qituvchilardir. U qanday jamiyatda ishlamasin, qanday fan o‘qitmasin, avvalo umuminsoniy qadriyatlarni o‘zida aks ettirgan, ularni shaxsiy namunasi orqali o‘quvchilarga yetkaza oladigan, axloqiy barqarorlikka ega shaxs bo‘lishi lozim.

Axloqiy barqarorlikka ega, madaniyatlararo muloqotga tayyor, global muammolarga befarq bo‘lmagan o‘qituvchilar kelajak avlodda faqat bilim emas, balki insoniylikni ham shakllantirishga qodir. Shuning uchun ham XXII asr o‘qituvchisi bu axborot manbasi emas, balki qadriyatlar targ‘ibotchisi, global fuqarolikning shaxsiy namunasi sifatida qaralishi lozim. Shu nuqtai nazardan, xalqaro ekspertlar ta’limda global kompetensiyalar va umuminsoniy qadriyatlarni

shakllantirishni XXII asrning yetakchi vazifalaridan biri sifatida koʻrmoqda. Jumladan, UNESCO tahlillarida ta’kidlanadi: “Muallimlar insoniy qadriyatlarning tashuvchisi sifatida global fuqarolik, tinchlik va barqaror taraqqiyot gʻoyalarini amaliyotga tatbiq etuvchi asosiy ijodkorlardir”.[2]

Globallashuv sharoitida pedagogik faoliyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uygʻunlashtirish masalasi jahon ta’lim tizimlarida muhim oʻrin tutadi. Masalan, Finlyandiya ta’lim modelida oʻqituvchilar ta’lim mazmunidan tashqari axloqiy, emotsional va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi tarbiyaviy vazifalarni ham bajaradi. Ularda “learning to live together” (birgalikda yashashni oʻrganish) tamoyili asosida inson huquqlari, tenglik, ekologik mas’uliyat, bagʻrikenglik kabi umuminsoniy qadriyatlar ta’lim jarayoniga integratsiya qilingan. Singapur ta’lim tizimida esa “Character and Citizens’hip Yeducation” (Xulq va fuqarolik ta’limi) alohida fan sifatida oʻqitiladi. Unda har bir oʻquvchida milliy faxr, turli etnik guruhlarga hurmat va global dunyoda mas’uliyat tuygʻusi uygʻotiladi. Bu modelda oʻqituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki madaniyatlar oʻrtasida muloqot oʻrnatuvchi, tolerantlikni shakllantiruvchi shaxs sifatida tayyorlanadi. Yaponiya ta’limida esa milliy qadriyatlar: vatanparvarlik, oʻzlikni anglash, mehnatsevarlik maktabgacha ta’limdan boshlab singdiriladi. Shu bilan birga, oʻquvchilarda jamoaviylik, javobgarlik, insoniylik kabi universal qadriyatlar ham tizimli ravishda tarbiyalanadi. Oʻqituvchi bu jarayonning asosiy subyektlaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro amaliyot va Oʻzbekiston ta’lim strategiyasidagi tendensiyalar shundan dalolat beradiki, zamonaviy oʻqituvchi milliy oʻzlikni anglagan, shu bilan birga global miqyosda fikrlay oladigan, umuminsoniy qadriyatlarni tashuvchi shaxs sifatida tayyorlanishi lozim. Buni amalga oshirish uchun oʻqituvchilarda axloqiy barqarorlik, madaniy muloqotga ochiqlik, inson qadrini anglash va jamiyat oldidagi mas’uliyat tuygʻusini shakllantirish ta’lim tizimining ustuvor vazifasidir.

UNESCO tomonidan 2015-yilda qabul qilingan “Recommendation concerning the Status of Teachers” hujjati ta’lim sohasida oʻqituvchi shaxsiyatining ijtimoiy va axloqiy oʻrnini qayta ta’riflashga qaratilgan xalqaro normativ hujjatlardan biri hisoblanadi. Unda keltirilgan axloqiy standartlar oʻqituvchining kasbiy faoliyatini faqat ta’lim berish bilan emas, balki umuminsoniy qadriyatlarni amaliyotga tatbiq etish bilan bogʻlaydi. Quyida har bir me’yorga alohida tahliliy yondashuv taqdim etiladi. 1. Inson qadrini hurmat qilish. Bu me’yor ta’lim jarayonida har bir shaxsning huquq va erkinliklarini toʻliq tan olish, uning qadr-qimmatini asrashni nazarda tutadi. 2. Barcha oʻquvchilarga teng munosabatda boʻlish. Ta’limda tenglik prinsipi – bu faqat qonuniy emas, balki axloqiy talab hamdir. 3. Ijtimoiy adolat va bagʻrikenglikni targʻib etish. Oʻqituvchi nafaqat axloqiy muvozanatni saqlashi, balki uni targʻib etishi kerak. 4. Axborotni xolis va shaffof yetkazish. Bu standart muallimning axborot tarqatishda subyektiv qarashlardan xoli, manipulyativ ta’sirlardan uzoq va haqqoniy boʻlishini talab etadi. 5. Oʻquvchi shaxsiyatiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda boʻlish. Bu me’yor oʻqituvchining psixologik-axloqiy hushyorligini anglatadi. U har

[2] UNESCO. Teachers for Education 2030: A Framework for Action. – Paris: UNESCO Publishing, 2016. – S. 12.

bir o‘quvchining ichki dunyosi, hissiy holati, individual ehtiyojlariga e’tibor bilan qarashi kerak. 6. Kasbiy mustaqillik va mas’uliyatni his qilish. Bu me’yor pedagogdan shaxsiy fikrini shakllantirish, mustaqil qaror qabul qilish, ayni paytda jamiyat va ta’lim muassasasi oldidagi kasbiy mas’uliyatni anglashni talab qiladi.

OYECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) ta’lim sohasidagi xalqaro tadqiqotlari orqali o‘qituvchi faoliyatini nafaqat kasbiy bilim va metodika doirasida, balki axloqiy va ijtimoiy mas’uliyat nuqtai nazaridan baholashga alohida e’tibor qaratadi. 2020-yilda nashr etilgan TALIS 2018 hisobotida XXII asr o‘qituvchisida shakllanishi zarur bo‘lgan yetakchi axloqiy kompetensiyalar ro‘yxati ilgari suriladi. Ular quyidagilar: 1. Global fuqarolik ongi. 2. Axloqiy xavfsizlik (yethical safety). 3. Raqamli muhitda mas’uliyatli munosabat. 4. Madaniy xilma-xillikni qabul qilish. 5. Jamiyat oldida hisobdorlikka asoslangan faoliyat. Dissertatsiyada ushbu kompetensiyalar tahlil qilingan.

Kasbiy axloq bu muayyan kasb doirasida shakllangan axloqiy munosabatlar, mas’uliyat va majburiyatlar majmuasini ifodalovchi, har bir kasbga xos axloqiy me’yorlar tizimidir. Pedagogik kasbda kasbiy axloq o‘ta murakkab va dolzarb masaladir. Chunki o‘qituvchi faqat bilim tarqatmaydi, balki shaxsga ta’sir etadi, uning ruhiy olami, dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi shakllanishiga bevosita hissa qo‘shadi. Shundan kelib chiqib, o‘qituvchidagi kasbiy axloq, birinchi navbatda, o‘quvchi shaxsiyatiga hurmat bilan boshlanadi. Bu hurmat nafaqat tashqi munosabatda, balki uning fikrini tinglash, ehtiyojini anglash, qobiliyatini inobatga olish, shaxsiy fazilatlarini rag‘batlantirish orqali namoyon bo‘lishi kerak. Dissertatsiyada pedagog kasbiy axloqining quyidagi mezonlari aniqlashtirilgan: xolislik va teng munosabat; shaxsiy namuna; pedagogik madaniyat. Zamonaviy ta’lim tizimida esa pedagog shaxsiyati insonparvarlik, subyektli yondashuv, hamkorlik, bag‘rikenglik va yetuk muomala bilan baholanadi. O‘qituvchi – o‘rganuvchi bilan bir qatorda faol ishtirokchi, ilhombaxsh yetakchi va shaxsiy namuna sifatida namoyon bo‘ladi. Kasbiy axloq endilikda faqat buyruqbozlik yoki intizom emas, balki shaxslararo muloqot madaniyati, empatiya, psixologik ehtiyojni his qilish, axborotda xolislik kabi ko‘pqirrali talablardan iborat. Pedagogik madaniyat esa nafaqat nutq madaniyati va tashqi odob, balki iqtisodiy, ekologik, raqamli va global fahmga ega inson sifatidagi pedagog shaxsiyati orqali shakllanadi.

Zamonaviy pedagogik metodologiyada kasbiy axloq va madaniyatning shakllanishiga ta’sir etuvchi turli nazariy modellar, ta’lim paradigmalari va metodologik tizimlar mavjud. Ular orasida gumanistik, aksiologik, kognitiv, faoliyat yo‘naltirilgan, kompetentlikka asoslangan va integrativ yondashuvlar alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir metodologik yondashuv o‘zining ma’naviy-axloqiy maqsadi, falsafiy asosi va ijtimoiy qimmati orqali o‘qituvchi shaxsiyatida axloqiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda ular batafsil tahlil qilingan.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv – bu ta’lim jarayonida o‘quvchi yoki talabaning shaxsiy ehtiyojlari, individual xususiyatlari, ichki dunyosi va axloqiy pozitsiyasini hisobga olgan holda yo‘naltiriluvchi metodologik yondashuv hisoblanadi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, ayniqsa, kasbiy axloq va pedagogik

madaniyatni shakllantirishda juda muhim ahamiyatga ega. Zero, axloqiy ong va madaniy yetuklikni tashqi tartiblar bilan emas, balki insonning ichki dunyosi, xulq-atvor va ma’naviy qadriyatlarga nisbatan ongli munosabati orqali shakllantirish mumkin. Aksiologik yondashuv – ta’lim tizimida inson faoliyatini muayyan qadriyatlar asosida tashkil etishga yo‘naltirilgan metodologik qarash bo‘lib, u pedagogik jarayonda bilim berishdan ko‘ra ma’naviy yuksaltirishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Aksiologik yondashuvga ko‘ra har qanday ta’lim-tarbiya jarayoni muayyan qadriyatlar tizimini o‘zida mujassam etgan bo‘lishi shart. Kognitiv-axloqiy yondashuv – bu ta’lim jarayonida bilimlar tizimi bilan axloqiy anglash jarayonini bir-biriga mutanosib holda olib borishga asoslangan metodologik qarashdir. Mazkur yondashuvda o‘qituvchi axborot yetkazuvchi emas, balki axloqiy anglashga yetaklovchi mulohazali murabbiy sifatida namoyon bo‘ladi. U o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki tahlil qilish, axloqiy-fikriy muvozanat, haqiqatga intilish va insof bilan baholash fazilatlarini shakllantirishi lozim.

UNESCO (2015) va OYECD (2020) hujjatlarida kasbiy axloqiy standartlarning universal tarzida belgilanishi, madaniy xilma-xillikka nisbatan bag‘rikenglik, raqamli muomalada mas’uliyat, ijtimoiy adolatni ilgari surish kabi kompetensiyalar ta’limning markaziy vazifasi sifatida belgilangan. Bu modellar bilim berish emas, ma’naviy yetakchilik va faol fuqarolik tarbiyasiga qaratilgan yondashuvni ifodalaydi.

1-jadval

UNESCO (2015) modeli va OYECD **(2020) modelining qiyosiy tahlili**

Tashkilot	Model yo‘nalishi	Asosiy qadriyatlar	O‘qituvchi roli
UNESCO (2015)	Insonparvarlik, adolat, bag‘rikenglik	Shaxs qadri, adolat, xolislik, insof	Ma’naviy yetakchi, qadriyatlar tashuvchisi
OYECD **(2020)**	Global fuqarolik, raqamli mas’uliyat, axloqiy xavfsizlik	Hisobdorlik, axloqiy ong, inklyuzivlik	Jamiyat oldida mas’ul yetakchi, axloqiy muhit yaratuvchi

Pedagogik tadqiqotlarda an’anaviy va zamonaviy ilmiy metodlardan samarali foydalanish orqali mazkur masalalarni kompleks tahlil qilish mumkin. Tarixiy-tahliliy metod orqali o‘qituvchilik kasbining axloqiy tamoyillari, pedagogik madaniyatning shakllanish jarayonlari, ularning milliy ta’lim tizimida tutgan o‘rni va roli izchil tahlil etiladi. Ushbu metod asrlar davomida shakllangan ma’naviy an’analarni, ma’rifatparvarlik g‘oyalarini, pedagog shaxsiyatining qadimgi va zamonaviy namunalarini o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilish imkonini beradi. Tahliliy-sintetik metod – bu ilmiy tadqiqotda mavjud nazariy g‘oyalar, konsepsiyalar va amaliyot natijalarini tahlil qilish, ularni solishtirish, o‘zaro bog‘liqlik va farqlarni aniqlash hamda ular asosida umumlashma xulosalar chiqarishga xizmat qiluvchi samarali metod hisoblanadi. Nazariy modellash metodi – bu tadqiqot obyektining muhim bo‘lgan murakkab jarayonlar, munosabatlar va fenomenlarni nazariy-mantiqiy asosda sxemalashtirish, tuzilmaviy tasniflash va tahlil qilishga qaratilgan metod hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda muhim o‘rin tutadigan

usullardan biri bu — kontent tahlil metodidir. U xulosa va tendensiyalarni bevosita emas, balki axborot, hujjatlar, matn va muloqot materiallarida aks etgan ma’naviy, axloqiy va madaniy mazmunni tahlil qilish orqali aniqlash imkonini beradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy etika va pedagogik madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslari”** deb nomlanadi va unda oliy pedagogik ta’lim mazmunida kasbiy etika va pedagogik madaniyatni tarbiyalashning ilmiy-nazariy tamoyillari aniqlashtirilgan, bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy etika va pedagogik madaniyatni shakllantirish modeli ishlab chiqilgan va oliy pedagogik ta’limda axloqiy tarbiya va pedagogik madaniyatni shakllantirishning innovatsion texnologiyalari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalari asosida oliy pedagogik ta’limda bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy etika va pedagogik madaniyatni shakllantirishning insonparvarlik, xolislik, innovatsion yondashuv, inklyuziya va raqamli transformatsiya tamoyillari aniqlashtirildi. Ta’lim siyosatida belgilangan ushbu tamoyillar kasbiy etika va pedagogik madaniyatni shakllantirish jarayonida o‘ta muhim ma’naviy-ilmiy mezonlar hisoblanadi.

Insonparvarlik tamoyili ta’lim tizimining ma’naviy-axloqiy asosini tashkil etuvchi asosiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib, u o‘quvchi shaxsini markazga qo‘ygan holda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga xizmat qiladi. Mazkur tamoyil insonning ichki ehtiyojlari, ruhiy holati, shaxsiy qadr-qimmati, qiziqishlari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda faoliyat yuritishni nazarda tutadi. Pedagog insonparvarlik tamoyilini amalga oshirgan holda talabaning shaxs sifatida rivojlanishiga yo‘naltirilgan tarbiyaviy muhit yaratadi. Uning faoliyatida talabaning qadr-qimmatini, dunyoqarashini, fikrlash uslubini va ijtimoiy maqomini inobatga olgan holda, shaxsga moslashuvchan ta’lim taklif etiladi.

Xolislik tamoyili ta’lim-tarbiya jarayonida adolat, haqqoniylik va teng huquqlilik prinsiplarining amaliy ifodasi bo‘lib, u har bir o‘quvchi shaxsiga nisbatan bir xil mezonlar asosida munosabat bildirishni talab etadi. Bu tamoyil kasbiy etikaning markaziy yo‘nalishlaridan biri sifatida pedagogning shaxsiy munosabatlari, emotsional qarashlari yoki subyektiv baholaridan xoli holda ish yuritishini ta’minlaydi. Pedagogning xolis faoliyati uning axloqiy barqarorligi, insonparvar qarashi va madaniy yetukligining belgisidir.

Innovatsion yondashuv tamoyili ta’limning mazmun, shakl va uslublarini zamonaviy tendensiyalar asosida takomillashtirishga qaratilgan falsafiy va metodologik yo‘nalish bo‘lib, u pedagogik jarayonni ilg‘or tajriba, yangi texnologiyalar va ijodiy yondashuvlar bilan boyitishni ko‘zda tutadi. Bu yondashuv nafaqat ta’lim natijalarining samaradorligini oshiradi, balki o‘qituvchining kasbiy madaniyatini ham mustahkamlaydi. Innovatsion yondashuv pedagogning faoliyatida yangilikka ochiqlik, tadqiqotga asoslangan qarorlar qabul qilish, muammolarga kreativ yechim topish, axloqiy qarorlar qabul qilishdagi sezgirlik va shaxslararo munosabatlardagi madaniy muloqot salohiyatini rivojlantiradi.

Inklyuziya tamoyili bu ta’limda tenglik, adolat va insonparvarlikni ta’minlashga qaratilgan zamonaviy metodologik yo‘nalish bo‘lib, u har bir talabaning shaxsiy ehtiyojlari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta’lim olish

huquqini kafolatlaydi. Ushbu yondashuvning markazida inson qadri, shaxsiy farqlarga hurmat va turli xilligini boylik sifatida qabul qilish g‘oyasi turadi. Inklyuziv yondashuv o‘qituvchidan nafaqat didaktik, balki axloqiy tayyorgarlikni ham talab qiladi.

Raqamli transformatsiya tamoyili – bu zamonaviy ta’limning ajralmas qismiga aylangan raqamli muhitdagi faoliyatni ma’naviy-axloqiy me’yorlar asosida yo‘lga qo‘yishga qaratilgan yondashuvdir. U nafaqat texnologik yangilanishni, balki raqamli savodxonlik, axborot madaniyati va raqamli axloq normalarini o‘qituvchi shaxsiyatida shakllantirishni talab etadi. Bu tamoyil doirasida kasbiy etika endi faqat an’anaviy o‘quv darsxonasidagi munosabatlar bilan cheklanmaydi, balki internet, ijtimoiy tarmoqlar, elektron o‘quv platformalari va raqamli aloqa vositalarida ham o‘qituvchining axloqiy mas’uliyatini qamrab oladi.


Tadqiqot natijalari va tahlillari asosida “Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy etika va pedagogik madaniyatni shakllantirish modeli” ishlab chiqildi (1-rasm). Mazkur model ilmiy modellashtirishning ilmiylik, universallik, izchillik va normativlik tamoyillari asosida ishlab chiqildi. Model tuzilishi har bir elementning metodologik asoslari, mazmunli yo‘nalishlari, amaliy-texnologik mexanizmlari hamda baholash va natijalarni ko‘zdan kechirish imkoniyatlari bilan chambarchas bog‘liq holda tashkil etilgan. Ushbu bloklar bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan bo‘lib, ularning har biri pedagogik ta’sirning muayyan funksional vazifasini bajaradi. Bunda ta’limning maqsadli, mazmuniy, texnologik va diagnostik jihatlari uyg‘un holda namoyon bo‘ladi.

Modelning blokli arxitekturasi ushbu jarayonda qatnashayotgan barcha subyektlar faoliyatini uyg‘unlashtirish, kasbiy va axloqiy tarbiya vazifalarini puxta rejalashtirish, amaliyotda aniq natijalarga erishish imkonini beradi. Shuning uchun ushbu model nafaqat nazariy asos, balki amaliyotga yo‘naltirilgan, ishlashga tayyor o‘quv-tarbiyaviy tizim sifatida ishlab chiqilgan.

Ijtimoiy buyurtma bu jamiyatning ta’lim tizimi orqali shakllanadigan shaxslardan kutayotgan natijalari, ularda qanday xususiyatlar bo‘lishi lozimligini belgilab beruvchi dasturiy yo‘nalishdir. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy etika va pedagogik madaniyatni shakllantirish modelida ijtimoiy buyurtma to‘rt asosiy komponent orqali ifodalanadi.

Maqsadli-metodologik blok – modelning markaziy yo‘nalishini belgilab beruvchi, butun pedagogik tizimning metodologik ustuvorliklarini shakllantiruvchi asosiy qism hisoblanadi. U mazkur modelni yaratishdan ko‘zlangan maqsadni, tadqiqot va amaliyotda suyangan metodologik asoslarni hamda ilmiy yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Model chizmasida ham ushbu blok birinchi va yetakchi tarkibiy tuzilma sifatida tasvirlangan.

Tarkibiy-mazmuniy blok bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy etika va pedagogik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladigan ta’limiy-tarbiyaviy muhitni mazmun jihatdan boyitishni ta’minlaydi. Modelda bu blok axloqiy bilimlar, qadriyatlar va fazilatlarni aniq muhit, faoliyat va muloqot sharoitida shakllantirishga qaratilgan. Blok to‘rt asosiy yo‘nalishdan va ularga bog‘liq mazmuniy elementlardan tashkil topgan: muhit**,** hamkorlik, faollik, integratsiya.



1-rasm. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy etika va pedagogik madaniyatni shakllantirish modeli

Texnologik-amaliy blok ta’lim jarayonida axloqiy kompetensiyalar va pedagogik madaniyatni shakllantirishni ta’minlovchi metodik hamda amaliy mexanizmlarni qamrab oladi. Ushbu blok modelning nazariyadan amaliyotga o‘tishini ta’minlaydigan, pedagogik ta’sirning usul, shakl va vositalarini tizimlashtiruvchi asosiy bo‘g‘in hisoblanadi. Model chizmasida bu blok to‘rt asosiy yo‘nalish: texnologiyalar, metodlar, shakllar va vositalar orqali ifodalangan.

Diagnostika va natija bloki: mazkur blok modeldagi barcha nazariy, metodologik va amaliy jarayonlarning muvaffaqiyatli amalga oshishi va samaradorligini ta’minlash, ularning talabalardagi kasbiy-axloqiy yetuklik darajasiga qanday ta’sir ko‘rsatganini aniqlash vazifasini bajaradi. U ikki asosiy vazifani o‘z ichiga oladi: diagnostika va natija. Chizmada bu jarayonlar to‘rt asosiy funksional yo‘nalish: monitoring, korreksiya, baholash va realizatsiya orqali rivojlanadi.

Umuman, bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy etika va pedagogik madaniyatni shakllantirish modeli axloqiy yetuk, ma’naviy barkamol va javobgarlikni his qiluvchi o‘qituvchi shaxsini tarbiyalashga yo‘naltirilgan kompleks pedagogik tizim hisoblanadi. Model tuzilishidagi maqsadli-metodologik, tarkibiy-mazmuniy, texnologik-amaliy va diagnostika-natija bloklari o‘zaro bog‘liq holda faoliyat yuritib, ta’lim jarayonini nazariyadan amaliyotga, shaxsdan jamoaga, bilimdan faol ijtimoiy pozitsiyaga olib chiqishga xizmat qiladi.

Zamonaviy pedagogik jarayonda axloqiy tarbiyani tashkil etish masalasi nafaqat mazmun jihatdan, balki texnologik yondashuv nuqtai nazaridan ham yangicha talqin etilishni talab etmoqda. An’anaviy vositalar asosidagi ma’lumot berishga qaratilgan tarbiya shakllari bugungi tez o‘zgarayotgan, axborotga to‘yingan jamiyatda yetarli ta’sir kuchi va samaradorlikka ega bo‘lmay qolmoqda. Shu bois, axloqiy tarbiya jarayonini shaxsni faol ishtirokchiga aylantiradigan, uning ongiga, hissiyotiga, tafakkuriga ta’sir qiluvchi, interaktiv va innovatsion usullarga asoslangan pedagogik texnologiyalar orqali tashkil etish dolzarb vazifaga aylangan. Axloqiy tarbiyaga oid innovatsion texnologiyalar bu faqat yangi vositalarni joriy etish emas, balki tarbiya jarayonining mohiyatini qayta ko‘rib chiqish, shaxsning ichki ehtiyojlariga mos ravishda ta’sir mexanizmlarini qayta qurish demakdir. Keyslar, kvestlar, muammoli vaziyatlar, debatlar, rolli o‘yinlar, simulyatsiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalarda axloqiy tanlov qilish, shaxsiy munosabat bildirish, ijtimoiy vaziyatlarda mas’uliyatli qaror qabul qilish qobiliyati shakllantiriladi.

Keys texnologiyasi – ta’limda hayotga yaqin, murakkab va ko‘p variantli muammoli vaziyatlar asosida talabalarda axloqiy pozitsiya, fikrlash va munosabatni shakllantirishga xizmat qiluvchi interaktiv pedagogik texnologiyadir. U axloqiy tarbiyani faqat ma’lumot berish yoki tayyor javobni eslatish darajasidan chiqarib, shaxsiy fikr yuritish, tahlil qilish, qaror qabul qilish va ichki pozitsiyani asoslash jarayoniga aylantiradi. Bu usul orqali o‘quvchi real hayotdagi axloqiy muammolarni chuqurroq anglash, unga munosabat bildirish va qaror qabul qilish tajribasini bosqichma-bosqich o‘rganadi.

Kvest texnologiyasi – ta’lim jarayonida axloqiy tarbiyani jonli, tajribaga asoslangan va hissiy ta’sirli formatda tashkil etishga xizmat qiluvchi innovatsion usullardan biri hisoblanadi. Bu texnologiya ma’lum bir g‘oya yoki axloqiy muammoga bog‘langan bir necha bosqichli vazifalar tizimiga asoslanadi. Har bir bosqichda talabadan faqat bilim yoki tushuncha emas, balki shaxsiy pozitsiya, ichki hissiyot va ijtimoiy munosabat ham talab etiladi. Bu esa axloqni abstrakt bilim emas, balki hayotga oid voqelik sifatida anglashga zamin yaratadi.

Muammoli vaziyat tahlili texnologiyasi – bu axloqiy tarbiya jarayonida talabani turli tanlov va qarorlar o‘rtasida mustaqil fikrlashga, murakkab ijtimoiy-ma’naviy holatlar mohiyatini anglashga va shaxsiy munosabat bildirishga yo‘naltiruvchi samarali usullardan biri hisoblanadi. Bu texnologiyaning asosiy afzalligi bitta “to‘g‘ri” javobga emas, balki turli mantiqiy, axloqiy va ijtimoiy nuqtai nazarlarni muhokama qilishga imkoniyat yaratishidadir. Bu esa talabani standart yodlash emas, balki shaxsiy pozitsiyani shakllantirish sari yetaklaydi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy etika va pedagogik madaniyatni shakllantirishga oid tajriba-sinov ishlari”** deb nomlanadi va unda Diagnostik tadqiqot metodikasi va pedagogik tajriba-sinov ishlari mazmuni, uning natijalari va matematik-statistik tahlili keltirilgan.

Diagnostika jarayonida asosiy maqsad – pedagogik ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarda kasbiy-axloqiy kompetensiyalar, javobgarlik hissi, insoniy munosabatlar madaniyati va pedagogik fazilatlarning qanday darajada shakllanganini tizimli tahlil qilishdan iborat. Bu jarayon nafaqat ma’lumot yig‘ish, balki talaba shaxsiyatidagi ichki holat, ruhiy-ma’naviy tamoyillar va kasbiy o‘zini anglash jarayonini chuqur tushunishni ham talab etadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy etika va pedagogik madaniyatni shakllantirish jarayonida xolis diagnostika olib borish uchun, eng avvalo, o‘rganilayotgan sifatlarning aniq va me’yorlashtirilgan indikatorlarini belgilab olish talab etiladi. Bu indikatorlar pedagogik shaxsiyatning axloqiy yetukligi, kasbiy qadriyatlarga sadoqati va umumiy madaniy saviyasini baholashda uslubiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tajriba-sinov jarayonida quyidagi diagnostik usullardan foydalanildi: so‘rovnoma – tadqiqot ishtirokchilari fikri, qarashi va shaxsiy munosabatlarini aniqlashda eng ko‘p qo‘llanadigan vosita bo‘lib, uning ustunligi keng qamrovlilik, ma’lumotlarni tizimlashtirish va statistik tahlil qilish imkoniyatida namoyon bo‘ladi; testlar esa bilish darajasi, axloqiy tanlov qobiliyati va kasbiy bilimlar tizimini baholash uchun mo‘ljallanadi; intervyu (suhbat) – individual yondashuvni ta’minlovchi samarali usul bo‘lib, shaxsning ichki kechinmalari, voqealarga munosabati, qaror qabul qilishdagi axloqiy mezonlari kabi omillarni chuqurroq o‘rganish imkonini yaratadi; kuzatuv – talabalarning real ta’lim jarayonidagi, ayniqsa, amaliyot paytidagi faoliyatini beg‘araz tahlil qilish imkonini beruvchi usul hisoblanadi; ryefleksiya – o‘quvchi shaxsiyatining o‘ziga baho berish, axloqiy qarorlar va kasbiy xatti-harakatlar yuzasidan mulohaza yuritish qobiliyatini aniqlashga qaratilgan usuldir. Ushbu usullarning barchasi o‘zaro uyg‘un holda

qo‘llanilganda bo‘lajak o‘qituvchilarning axloqiy, kasbiy va madaniy jihatdan rivojlanish holati kompleks tarzda baholanishi ta’minlanadi.

Bu esa model samaradorligini ilmiy asosda baholash va tarbiyaviy jarayonni takomillashtirish uchun mustahkam metodik poydevor yaratadi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari turli hududlardagi pedagogik ta’lim muassasalarida olib borildi. Jumladan, tadqiqot jarayonida umumiy hisobda 414 nafar talabalar qamrab olindi. Ular Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Navoiy davlat pedagogika instituti va Nukus davlat pedagogika institutining “Jismoniy madaniyat” ta’lim yo‘nalishida tahsil oluvchi 1-2 bosqich talabalaridan iborat bo‘ldi. Talabalar maxsus ravishda sinov (eksperimental) va nazorat guruhlariga ajratildi.

Axloqiy madaniyatni shakllantirish jarayoni samaradorligini baholash maqsadida diagnostika jarayonida aniq mezon va parametrlar ishlab chiqildi. Ushbu mezonlar axloqiy yetuklik, kasbiy qadriyatlarga sodiqlik, shaxslararo munosabat madaniyati, axloqiy muammolarni hal qilish qobiliyati, refleksiv tafakkur va pedagogik yetuklik kabi ko‘rsatkichlarga tayanadi.

